



PHILOSOPHICAL MECHANISMS FOR STRENGTHENING NATIONAL IDENTITY AMONG YOUTH

Tokhirjon Mutalibovich Matmusayev

Senior Lecturer, Department of Military Pedagogy and Psychology

University of Military Security and Defense

E-mail: mvaisbay@gmail.com

Tashkent, Uzbekiston

ABOUT ARTICLE

Key words: Globalization, youth, national identity, values, socio-philosophical factors, patriotism, solidarity.

Received: 19.12.25

Accepted: 20.12.25

Published: 21.12.25

Abstract: This scientific article examines the influence of education, cultural heritage, mass media, and national ideology on the formation of national consciousness, a sense of patriotism, and collective memory in Uzbekistan's youth in the context of globalization. The research results show that studying the forms of national self-awareness among young people, relying on the history of its formation, develops national pride and social solidarity. This scientific article presents opinions necessary for preserving the national-cultural identity of young people in the context of global changes.

YOSHLARNING MILLIY O'ZLIKNI ANGLASHINI KUCHAYTIRISHNING FALSAFIY MEKANIZMLARI

Toxirjon Mutalibovich Matmusayev

Harbiy xavfsizlik va mudofaa universiteti

Harbiy pedagogika va psixologiya kafedrasi katta o'qituvchisi

E-mail: mvaisbay@gmail.com

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Globallashuv, yoshlar, milliy o'zlik, qadriyatlar, ijtimoiy-falsafiy omillar, vatanparvarlik, hamjihatlik.

Annotatsiya: Mazkur ilmiy maqola globallashuv sharoitida O'zbekistonda yoshlarda milliy o'zlikni anglash, vatanparvarlik tuyg'usi va jamoaviy xotiraning shakllanishiga ta'lim, madaniy meros, ommaviy axborot vositalari va milliy mafkura qanday ta'sir ko'rsatishini o'rganadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, yoshlarning milliy o'zlikni anglash shakllarini uning shakllanish tarixiga tayangan holda o'rganish milliy g'urur va ijtimoiy hamjihatlikni rivojlantiradi. Mazkur ilmiy maqolada yoshlarning global o'zgarishlar sharoitida milliy-madaniy o'ziga xoslikni saqlab qolish uchun zarur fikr-mulohazalar keltirilgan.

ФИЛОСОФСКИЕ МЕХАНИЗМЫ УСИЛЕНИЯ НАЦИОНАЛЬНОГО САМОСОЗНАНИЯ МОЛОДЕЖИ

Тохиржон Муталибович Матмусаев

Старший преподаватель кафедры военной педагогики и психологии

Университета военной безопасности и обороны

E-mail: mvaisbay@gmail.com

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: глобализация, молодежь, национальная идентичность, ценности, социально-философские факторы, патриотизм, солидарность.

Аннотация: Данная научная статья исследует, как в условиях глобализации образование, культурное наследие, средства массовой информации и национальная идеология влияют на понимание национальной идентичности, чувства патриотизма и формирование коллективной памяти у молодежи в Узбекистане. Результаты исследования показывают, что изучение форм понимания молодежью национальной идентичности, основываясь на истории ее формирования, способствует развитию национальной гордости и социальной сплоченности. В этой научной статье приведены необходимые размышления для сохранения национально-культурной специфики молодежи в условиях глобальных изменений.

Kirish. Globalizatsiya jarayonlari, axborot texnologiyalarining keskin rivojlanishi, turli madaniy kodlar va g'oyalar to'qnashuvi sharoitida yoshlarning milliy o'zlikni anglash darajasini mustahkamlash har qachongidan ham muhim. Bugungi global raqamli makonda yoshlar ongiga ta'sir o'tkazuvchi tashqi axborot oqimlari (ijtimoiy tarmoqlar, virtual madaniyat, reklama, transmilliy kontent) kuchayib bormoqda. Bu esa milliy qadriyatlar, tarixiy xotira, ma'naviy meros va identifikatsiya jarayoniga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu nuqtai nazardan, yoshlarning milliy

o'zligini shakllantirish – faqat pedagogik yoki madaniy masala emas, balki ijtimoiy-falsafiy muammo, jamiyat taraqqiyotining strategik omilidir.

XXI asrda kechayotgan global integratsiya jarayonlari dunyoning g'oyaviy-mafkuraviy qiyofasini o'zgartirib bormoqda. Dunyoda va xususan, O'zbekistonda milliy o'zlikni anglashning zamonaviy rivojlanishining o'ziga xos xususiyati shundaki, ijtimoiy-madaniy jarayonlarning obektiv mantig'i millatlar o'rtasidagi integratsiyaning kuchayishiga olib keladi. Shu bilan birga, ularning o'z milliy boyliklarini asrab-avaylash va mustahkamlashga bo'lgan intilishlari kuchaymoqda, bu esa milliy o'zlikni anglashning o'sishidan dalolat beradi. Milliy o'z-o'zini anglash integratsiyalovchi funksiyani amalga oshirib, shaxs ijtimoiylashuvining shakl va usullariga, milliy ichki aloqalarning o'ziga xos xususiyatlariga ta'sir ko'rsatadi, millatlararo o'zaro ta'sirning xarakterini belgilaydi. Millatning hayotiy faoliyatida o'z-o'zini anglashning ahamiyati shu bilan belgilanadi. O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning "Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q" asarlarida "O'zlikni anglash deganda men tarixiy xotirani tiklash, nasl-nasabimiz kim ekanini, kimlarning vorisi ekanligimizni anglab yetishni tushunaman" deya ta'kidlagan.

Ko'plab tadqiqotchilarning ta'kidlashicha, yoshlarning milliy o'zlikni anglash shakllarini uning shakllanish tarixiga tayangan holda o'rganish ijtimoiy voqelik rivojlanishining dolzarb ehtiyojlari bilan talab qilinadi.

Mamlakatimizda bugungi kunda yoshlar ongida milliy o'zlikni anglashni shakllantirish uchun, avvalo, yoshlar beshta mezon talablarini shakllantirishi lozim. Bular:

milliy ong – har bir millatning tarixi, taqdiri va kelajagi bilan bog'liq manfaat va maqsadlarni ifodalash bilan birga, millat vakillarining faoliyatini maqsad va yo'nalishlarga yo'naltiruvchi g'oya va fikrlar tizimidir;

milliy g'urur – shaxs, ijtimoiy guruhning milliy o'zligini anglashi asosida shakllangan tushuncha bo'lib, ajdodlar qoldirgan moddiy va ma'naviy merosdan, o'z xalqining jahon sivilizatsiyasiga qo'shgan hissasidan, millatlar oldidagi qadr-qimmat va obro'-e'tiboridan faxrlanish tuyg'usini ifodalaydi;

milliy iftixor – millatning ma'naviy kamoloti, merosi va zamonaviy qadriyatlarining barcha jihatlarini qamrab oladi. Milliy mustaqillik natijasida erishilgan va erishiladigan iqtisodiy va ma'naviy yutuqlar qanchalik ko'p bo'lsa, O'zbekiston bilan faxrlanish tuyg'usi – milliy hissiyot shunchalik kuchayadi;

milliy tuyg'u – millat manfaati yo'lida yashash, o'zligini anglash. O'zini tanimagan odamda milliy g'urur so'nadi. Millatga mansublik umuminsoniy taraqqiyot qonuniyati bo'lib, milliy g'urursiz hech bir millat millat sifatida shakllanmaydi;

milliy xarakter – o‘zbek xarakteri, milliy ruhiyati, milliy o‘ziga xos xususiyatlari asrlar davomida shakllanib, asta-sekin uning qon-qoniga, ruhiga singib boradi. Agar ana shu mezonlarga haqiqiy milliy o‘zlikni anglashning asosi bo‘lsa, ana shu mezonlar asosida shakllangan yoshlar jamiyat taraqqiyotiga yetarlicha hissa qo‘sha oladi, bunday jamiyat davlatning mustahkam poydevori bo‘ladi.

XX asr O‘zbekiston jamiyatining rivojlanishi uchun o‘zining ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va mafkuraviy yo‘nalishi bo‘yicha qarama-qarshi rivojlanish bosqichlari xos bo‘lib, bu jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy identifikatsiyadan etnosotsial identifikatsiyaga o‘tishiga olib keldi. Mazkur holatlarning sabablarini anglashga intilishda milliy o‘zlikni anglashni o‘rganishga murojaat qilish lozim. I.I. Chesnakovning o‘zlikni anglash strukturasi uchta komponentni ajratadi: o‘z-o‘zini bilish, o‘zida emotsional – qadriyatli munosabatlar bo‘lishi va shaxs ahloqiy-ma’naviy o‘zini boshqarishidan iborat .

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Bugungi kunda milliy o‘zlikni anglash, tarixiy tajribaning ko‘rsatishicha, millatning eng yuksak ijtimoiy yutuqlarga erishishiga yordam beribgina qolmay, balki milliy fojialarning sababchisi ham bo‘lishi mumkin. Shuning uchun ham milliy o‘zlikni anglashning shakllanishi va amal qilish xususiyatlarini o‘rganish zamonaviy ijtimoiy tafakkurning muhim vazifasidir. Milliy o‘zlikni anglash muammolari, uni ifodalash shakllari ko‘p millatli O‘zbekiston sharoitida haqiqiy demokratik, huquqiy davlatga o‘tishda ayniqsa dolzarbdir. Yangi O‘zbekiston davlatchiligining shakllanishi barqarorlashtiruvchi elementlarga obyektiv ehtiyojni shakllantiradi. Ilmiy muomalada “hamjihatlik”, “milliy manfaatlar”, “milliy g‘oya” tushunchalari tobora ko‘proq paydo bo‘lmoqda. Milliy o‘zlikni anglashning qadriyat yo‘nalishlari o‘zgarayotgan burilish davrlarida milliy g‘oyani shakllantirish muammosi dolzarb bo‘lib, u millatning mustahkamlovchi asosi sifatida ehtiyojga aylanadi.

Millatlar taraqqiyoti va millatlararo munosabatlar muammosini falsafiy jihatdan yetarlicha anglab yetmaslik tadqiqotlarning diskretligi o‘ziga olib keldi, ularning empirik tarkibiy qismi ajralib chiqdi, nazariy konstantalar esa siyosiy lashtirildi. Milliy o‘ziga xoslik muammolarini yanada keng qamrovli falsafiy ishlab chiqmasdan turib, xususiy tadqiqotlarni rivojlantirish qiyin bo‘lishi ayon bo‘ldi. Milliy falsafa milliy o‘zlikni anglashning tabiati, mohiyati, tuzilishi, darajalari, funksiyalari mexanizmlari va rivojlanish qonuniyatlarini tadqiq etish bo‘yicha ishlanmalarga muhtoj. Milliy o‘zlikni anglashni shakllantirishning ijtimoiy-falsafiy muammolarini chuqur o‘rganish, nazariy mushohada qilish va umumlashtirish zarur. Lapich K.G. milliy o‘zlikni anglash bilan umum o‘zlikni anglash uzviy bog‘liqliliga asoslanib, uning uch tomonlama bog‘liqlikda: bilish, emotsional qadriyatlar va axloqiy-tarbiyaviy komponentlarini ko‘rsatadi [3].

Tahlil va natijalar. Yoshlarning o'zini o'zi boshqarish jarayonida, xususan, milliy o'zlikni anglashda mafkuraning roli ko'p jihatdan davlat tuzilishi shakliga bog'liq edi. Sovet davlati kommunistik mafkuraviy vazifalarga asoslanganligi sababli, dinning har qanday shakli, har qanday madaniy qadriyatli yondashuvga yo'l qo'yilmadi. Diniy madaniyat va diniy qadriyatlarning ijtimoiy hayotdagi o'rni nafaqat inkor etildi, balki uning barcha ko'rinishlariga qarshi kurashildi. Bu davrda milliy o'zlik masalasi deyarli unutilgan edi. Chunki milliy masalaga qiziqqanlar millatchilikda ayblanib, jazolangan.

Shaxsga singdirilgan ijodiy va yaratuvchilik qobiliyatlari uning erkinligi o'lchoviga mutanosib ravishda sodir bo'ladi. Erkinlik meyorlari uslubiy jihatdan cheklangan yoki nazorat qilinadigan mamlakatda taraqqiyot yo'llari bo'g'ib qo'yiladi. Totalitar tuzum sharoitida o'rnatilgan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va huquqiy tizimlarda inson o'zining kamsitilgan "meni"ni faollashtirish huquqidan mahrum edi. Chunki "meni"ning harakatga keltiruvchi erkinlik va mustaqillikni kishanlovchi tizim yaratildi. Inson shaxsligini ilohiyatlashtirishga qaratilgan nazariy qoidalar – individualizmni tanqid qilish zaylida yuzaga chiqdi. Holbuki, individualizmni o'z o'ziga mahliyolik, xudbinlik emas, balki o'z-o'zini qadrlash, shaxsiy kamolot sari intilish, tashabbuskorlik, ishbilarmonlik, tadbirkorlik, o'z "meni"ning mustaqilligi salohiyatini o'rnatishni taqozo etadi.

Milliy o'zlikni anglash masalalari milliy munosabatlar nazariyasida eng muhim masalalardan biri bo'lib, shu boisdan ham mahalliy va xorijiy olimlarning alohida e'tiborini tortmoqda deyish aslo xato bo'lmaydi.

Xulosa va takliflar. Yoshlarning milliy o'zlikni anglashini kuchaytirish – murakkab falsafiy jarayon bo'lib, u ontologik, aksiologik, gnoseologik va sotsiokultural omillar uyg'unligi asosida shakllanadi. Bunda ta'lim, oila, davlat siyosati, raqamli madaniyat, tarixiy xotira va qadriyatlar tizimi muhim rol o'ynaydi. Shu mexanizmlar uyg'un holda ishlatilganda, yoshlar global bosimlar orasida o'z milliy qiyofasini yo'qotmaydi, balki uni yanada boyitadi. O'zbekistondagi obyektiv integratsion tendensiyalarning o'sishi milliy o'ziga xoslikni mustahkamlash, milliy o'zlikni anglashning barqaror qarshi jarayoni bilan birga kechmoqda. Shuning uchun ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy o'zgarishlar sharoitida O'zbekiston kabi ko'p millatli davlatning rivojlanishi uchun etnik omil alohida dolzarblik kasb etadi. Biroq, milliy o'zlikni anglash va uning asosiy qadriyatlari xususiyatlarini hisobga olgan holda davlat va milliy siyosatning ilmiy asoslangan konsepsiyasining mavjudligi O'zbekiston jamiyatining barqaror rivojlanishiga asosiy omil bo'lib kelmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q.// Biz kelajagimizni o'z qolimiz bilan quramiz. T.7.-T.; "O'zbekiston", 1999. -B. 214-71.

2. Чеснакова И.И.. Проблема самосознания в психологии. М.: 1977. -144 с.
3. Лапич К.Г. Национальная самосвядомасць и менталитет беларус. / К.Г.Лапич // -2000. - №3. –С.8-12.
4. По‘latov X. Mustaqilligimiz qadriyatlari. “O‘zbekiston adabiyoti va san’ati” gazetasi. – Toshkent, 1993.-B.2.